



NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


**2023- YIL
YANVAR-IYUN**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(2021-2023- yillar yanvar-iyun)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2021-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Navoiy viloyati	5 239,1	100,0	109,7
Navoiy sh.	2 024,6	38,6	114,0
Zarafshon sh.	676,2	12,9	107,1
G'ozg'on sh.	15,6	0,3	108,8
Karmana t.	757,6	14,5	106,5
Konimex t.	118,0	2,3	108,4
Qiziltepa t.	498,4	9,5	109,2
Navbahor t.	299,7	5,7	106,8
Nurota t.	212,8	4,1	106,1
Tomdi t.	63,0	1,2	105,6
Uchquduq t.	169,8	3,2	106,7
Xatirchi t.	403,4	7,7	107,0

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2021-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 940,7** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,5 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	4 940,7	107,5
Navoiy sh.	12 879,1	110,2
Zarafshon sh.	7 780,8	105,7
G'ozg'on sh.	1 714,4	107,6
Karmana t.	5 550,5	103,9
Konimex t.	3 154,4	107,0
Qiziltepa t.	3 119,0	107,4
Navbahor t.	2 509,9	105,0
Nurota t.	2 407,1	104,3
Tomdi t.	3 985,3	104,2
Uchquduq t.	4 321,9	104,8
Xatirchi t.	1 915,5	105,0

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2021-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonining (19 942 birlik) **12 814** birligi xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi **85,2 %** ni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **2 957,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **56,5 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **16,8 %** ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Kichik tadbirkorlikning hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi, % da
Navoiy viloyati	2 957,6	56,5
Navoiy sh.	738,0	36,5
Zarafshon sh.	319,1	47,2
G'ozg'on sh.	9,1	58,3
Karmana t.	485,0	64,0
Konimex t.	101,5	86,0
Qiziltepa t.	382,4	76,7
Navbahor t.	222,4	74,2
Nurota t.	180,7	84,9
Tomdi t.	56,2	89,3
Uchquduq t.	137,4	80,9
Xatirchi t.	325,7	80,7


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	O'sish sur'ati, % <i>da</i>	Ulushi, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	5 239,1	109,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	211,4	124,3	4,0
Moliyaviy xizmatlar	1 219,5	126,8	23,3
Transport xizmatlari	809,8	98,0	15,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	712,8	102,6	13,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	346,2	107,1	6,6
Savdo xizmatlari	1 579,3	104,9	30,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	84,3	102,0	1,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	186,6	123,7	3,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,0	101,8	1,4
Ijara xizmatlari	64,5	91,9	1,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	81,1	105,5	1,5
Shaxsiy xizmatlar	145,3	103,3	2,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	256,9	105,2	4,9
Boshqa xizmatlar	183,2	112,3	3,5

Moliyaviy xizmatlar

(2021-2023- yillar yanvar-iyun)




2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **481,5** mlrd. soʻmga oshib, **1 219,5** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **23,3** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **126,8** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **90,8** % ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi **57,2** foizni yoki **697,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan Karmana tumanida yuqori oʻsish surʻati **134,2** % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	126,8
Navoiy sh.	124,7
Zarafshon sh.	132,1
G'ozg'on sh.	112,4
Karmana t.	134,2
Konimex t.	116,8
Qiziltepa t.	131,4
Navbahor t.	121,4
Nurota t.	119,8
Tomdi t.	119,4
Uchquduq t.	119,7
Xatirchi t.	123,2

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyo-satini erkinlash-tirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kredit-lashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilot-larning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmat-larning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Transport xizmatlari

(2021-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **809,8** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022-** yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **98,0** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **15,5** % ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **774** birlikni, yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonalar umumiy sonining **5,1** % ini tashkil etdi. Ulardan **765** birlik (**98,8** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,0** %.

	mlrd. so'mda	% da
Navoiy viloyati	809,8	98,0
Navoiy sh.	167,2	100,5
Zarafshon sh.	91,4	101,2
G'ozg'on sh.	2,5	101,5
Karmana t.	137,9	86,2
Konimex t.	32,2	103,6
Qiziltepa t.	129,1	100,3
Navbahor t.	63,7	100,7
Nurota t.	49,6	101,5
Tomdi t.	17,4	101,2
Uchquduq t.	34,1	101,0
Xatirchi t.	84,7	100,6

Navoiy viloyati geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Navoiy shahrida transport xizmatlari hajmi **20,6** mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **167,2** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **100,5** % ni tashkil etgan.


G'ozg'on shahrida ushbu ko'rsatkich **2,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning o'sish sur'ati **101,5** % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari

(2021-2023- yillar yanvar-iyun)

2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi **507,1** mlrd. soʻmga oshib, **1 579,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **104,9** % ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023- yilning 1-iyul holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **54,4** % yoki **8 182** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8** foizi (**8 164** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)



9,0 %

Ulgurji savdo xizmatlari,
avtomobillar va mototsikllar
savdosidan tashqari
xizmatlar

81,2 %

Avtomobillar va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo bo'yicha
xizmatlar



9,8 %

Avtomobillar va mototsikllar
ulgurji va chakana savdosi,
jumladan, ularni ta'mirlash
xizmatlarini qo'shgan holda
xizmatlar




2023- yilning yanvar-iyun

oylarida chakana savdoning
ulushi savdo xizmatlari umumiy
hajmining deyarli to'rt dan uch
qismini, ya'ni **81,2 %** ni tashkil
etdi.

Hududlar kesimida	Hududlar kesimida savdo xizmatlari mlrd.so'mda	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	1 579,3	104,9
Navoiy sh.	430,6	104,0
Zarafshon sh.	163,8	108,1
G'ozg'on sh.	1,3	106,1
Karmana t.	276,2	103,8
Konimex t.	44,5	110,7
Qiziltepa t.	189,7	107,8
Navbahor t.	112,6	112,2
Nurota t.	95,5	103,7
Tomdi t.	23,1	104,0
Uchquduq t.	73,1	104,6
Xatirchi t.	168,9	104,4

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **211,4** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, **oʻtgan yilning mos davriga** nisbatan oʻsish surʻati **124,3 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga koʻra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **258** birlikka yetdi, shundan **250** birligi (umumiy sonining **96,9 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. (2023- yil yanvar-iyun, % da) 2023- y.




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Oʻsish surʼati, <i>% da</i>
Navoiy viloyati	211,4	124,3
Navoiy sh.	62,8	129,1
Zarafshon sh.	16,8	127,8
Gʻozgʻon sh.	1,2	114,8
Karmana t.	24,7	126,1
Konimex t.	5,6	117,4
Qiziltepa t.	26,0	119,9
Navbahor t.	18,2	119,6
Nurota t.	13,4	121,0
Tomdi t.	2,6	120,5
Uchquduq t.	7,3	118,8
Xatirchi t.	32,8	123,0

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Navoiy shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **14,9** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **62,8** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **29,7 %** ni tashkil etdi.

Gʻozgʻon shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **186,6** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **123,7** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi **71,3** %ni tashkil etdi.


“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **71,0** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,4 %** ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **351** birlikni tashkil etdi, shundan **283** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-iyun)

2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **211,4** mlrd. so'mga oshib, **346,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 261** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 257** birligi (umumiy sonining **99,7** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **84,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,6 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **256,9** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **4,9 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,2 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Navoiy viloyati	256,9		
Navoiy sh.	57,5		
Zarafshon sh.	188,6		
Karmana t.	3,1		
Konimex t.	1,9		
Qiziltepa t.	0,7		
Navbahor t.	1,4		
		Nurota t.	0,2
		Tomdi t.	0,4
		Uchquduq t.	1,1
		Xatirchi t.	2,0

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2021-2023-yillar yanvar-iyun)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **81,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,5** %ni tashkil etgan.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2021-2023- yillar yanvar-iyun)

2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **9,2** mlrd. so'mga oshib, **64,5** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,2** % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyun** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **79,0** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

